

**Fuqaro havo kemasi ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma
PASPORTI**

1.	Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning nomi:	Fuqaro havo kemasi ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma
2.	Amalga oshirilishi uchun ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olish talab etiladigan faoliyat (harakatlar):	Fuqaro havo kemasini uchishga yaroqlilik sertifikatni olish chog'ida taqdim etish
3.	Ariza beruvchilar toifasi:	Yuridik yoki jismoniy shaxslar
4.	Ruxsat etish tartib-taomillari sohasidagi vakolatli organ:	O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligi ("O'zaviatsiya" agentligi)
5.	Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olish uchun taqdim qilinadigan hujjatlar:	1. Fuqaro havo kemasi ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomani olish uchun: a) ariza; arizada quyidagilar aks ettiriladi: 1) (talabgorning) yuridik shaxsning to'liq nomi yoki jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi; 2) havo kemasi to'g'risidagi ma'lumotlar: havo kemasining turi; zavodda berilgan raqami; ishlab chiqarilgan sanasi; havo kemasini ishlab chiqaruvchi; maksimal uchish vazni; o'rnatilgan dvigatellarning ishlab chiqaruvchisi (tashkilot nomi), turi va soni; bazasi joylashgan manzil; 3) mulkdor to'g'risidagi ma'lumot: yuridik shaxslar uchun: tashkilotning tashkiliy-huquqiy shaklini ko'rsatgan holda to'liq nomi; joylashgan joyi (pochta manzili); telefon raqami / e-mail; jismoniy shaxslar uchun: familiyasi, ismi, otasining ismi; fuqaroning shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari; yashash joyi manzili; telefon raqami / e-mail; b) havo kemasi turining sertifikati; v) jismoniy yoki yuridik shaxsning fuqaro havo kemasiga bo'lgan mulkiy huquqini yoki boshqa ashyoviy huquqni tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalari (shu jumladan, shartnomalar); g) havo kemasi xorijiy davlat havo kemalari reyestridan chiqarilganligi to'g'risida hujjat; d) havo kemasi xorijiy davlatdan O'zbekiston Respublikasiga kelganda, uchishga yaroqlilik eksport sertifikati.

**2. Fuqaro havo kemasini O‘zbekiston Respublikasi
Fuqaro havo kemalarining davlat reyestridan chiqarish
uchun:**

a) ariza;

arizada quyidagilar aks ettiriladi:

1) (talabgorning) yuridik shaxsning to‘liq nomi yoki jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi;

arizani berish sababi:

fuqaro havo kemasini chegirib tashlash	<i>f</i>
fuqaro havo kemasini foydalanishdan chiqarish	<i>f</i>
fuqaro havo kemasini belgilangan tartibda xorijiy davlatga, xorijiy davlatning yuridik yoki jismoniy shaxsiga sotish yoki topshirish	<i>f</i>
fuqaro havo kemasini davlat yoki eksperimental aviatsiyaga o‘tkazish	<i>f</i>

2) havo kemasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar:

havo kemasining turi;

milliy va ro‘yxatga olish belgilari;

zavodda berilgan raqami;

havo kemasini ishlab chiqaruvchi;

maksimal uchish vazni;

o‘rnatilgan dvigatellarning ishlab chiqaruvchi, turi va soni;

yangi egasi/mulkdorning nomi agar havo kemasi sotilsa yoki topshirilsa;

yangi ro‘yxatga oluvchi davlat, agar havo kemasi sotilsa yoki topshirilsa;

3) mulkdor to‘g‘risidagi ma’lumot:

yuridik shaxslar uchun:

tashkilotning tashkiliy-huquqiy shaklini ko‘rsatgan holda to‘liq nomi;

joylashgan joyi (pochta manzili);

telefon raqami / e-mail;

jismoniy shaxslar uchun:

familiyasi, ismi, otasining ismi;

fuqaroning shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma’lumotlari;

yashash joyi manzili;

telefon raqami / e-mail;

b) ilgari berilgan hujjatlarning asl nusxalari:

fuqaro havo kemasi ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma;

fuqaro havo kemasining uchishga yaroqlilik sertifikat;

fuqaro havo kemalariga shovqinlar bo‘yicha sertifikat;

fuqaro havo kemalarining radio jihozlari uchun sertifikat;

v) fuqaro havo kemasining 24-bitli manzili (Fuqaro aviatsiyasi xalqaro tashkiloti (IKAO) identifikatsiya kodi) fuqaro havo kemasining radiojihozlar tizimidan chiqarilganligini tasdiqlovchi hujjat;

g) SELCAL tizimi ASRI (Aviation Spectrum Resources) kompaniyasining ro‘yxatidan chiqarilganligini

		tasdiqlovchi hujjat (agar ushbu tizim havo kemasida mavjud bo'lsa); d) avariya radiomayozlari KOSPAS-SARSAT tizimining ro'yxatidan chiqarilganligini tasdiqlovchi hujjat.						
6.	Arizani ko'rib chiqish uchun to'lanadigan yig'im miqdori:	<table><tr><th>Havo kemasi</th><th>Yig'im</th></tr><tr><td>Maksimal uchish massasi 15 000 kg dan yuqori bo'lmagan havo kemalari</td><td>Bazaviy hisoblash miqdorining 63,7 baravari</td></tr><tr><td>Maksimal uchish massasi 15 000 kg va undan yuqori bo'lgan havo kemalari</td><td>Bazaviy hisoblash miqdorining 75,8 baravari</td></tr></table> Yig'implar summasi quyidagi tartibda taqsimlanadi: 10 foizi — O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlarini rivojlantirish jamg'armasiga; 11,25 foizi — Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali davlat xizmatlarini ko'rsatganlik uchun, shuningdek, 0,5 foizi Yagona billing tizimi orqali davlat xizmatlari ko'rsatganlik uchun Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasining elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotning idoralararo loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha maxsus hisobvarag'iga; qolgan mablag'larning 60 foizi — vakolatli organning hisobvarag'iga, 40 foizi — O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish jamg'armasiga yo'naltiriladi.	Havo kemasi	Yig'im	Maksimal uchish massasi 15 000 kg dan yuqori bo'lmagan havo kemalari	Bazaviy hisoblash miqdorining 63,7 baravari	Maksimal uchish massasi 15 000 kg va undan yuqori bo'lgan havo kemalari	Bazaviy hisoblash miqdorining 75,8 baravari
Havo kemasi	Yig'im							
Maksimal uchish massasi 15 000 kg dan yuqori bo'lmagan havo kemalari	Bazaviy hisoblash miqdorining 63,7 baravari							
Maksimal uchish massasi 15 000 kg va undan yuqori bo'lgan havo kemalari	Bazaviy hisoblash miqdorining 75,8 baravari							
7.	Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat berilganligi uchun undiriladigan yig'im:	Bazaviy hisoblash miqdorining 7,8 baravari. Yig'im summasi quyidagi tartibda taqsimlanadi: 10 foizi — O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlarini rivojlantirish jamg'armasiga; 11,25 foizi — Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali davlat xizmatlarini ko'rsatganlik uchun, shuningdek, 0,5 foizi Yagona billing tizimi orqali davlat xizmatlari ko'rsatganlik uchun Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasining elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotning idoralararo loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha maxsus hisobvarag'iga; qolgan mablag'larning 60 foizi — vakolatli organning hisobvarag'iga, 40 foizi — O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish jamg'armasiga yo'naltiriladi.						
8.	Arizani ko'rib chiqish muddati:	10 ish kuni. Fuqaro havo kemasini xorijiy davlat hududida tekshirish amalga oshirilgan hollarda, muddat 30 ish kunigacha uzaytirilishi mumkin.						
9.	Ruxsat etishga oid talab va shartlar:	a) fuqaro havo kemasining turiga tegishli bo'lgan fuqaro havo kemasining uchishga yaroqliligi normalariga muvofiqligini ta'minlash;* b) belgilangan resurslar va xizmat muddati doirasida fuqaro havo kemasidan foydalanish;*						

		v) fuqaro havo kemasida uning parvozlari xavfsizligiga tahdid solishi mumkin bo'lgan konstruktiv o'zgartirishlar yo'qligini ta'minlash;* g) O'zbekiston Respublikasining aviatsiya qoidalariga rioya qilish.*
10.	Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni berishda kelishiladigan organlar:	Mavjud emas
11.	Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilish muddati:	Cheklanmagan
12.	Izoh:	1. Ushbu Pasportning qoidalari davlat va eksperimental havo kemalari, deltaplanlar, paraplanlar, parashyutlar, boshqarilmaydigan uchuvchisiz aerostatlar, uchuvchisiz uchish qurilmalari hamda meteorologik maqsadlarda ishlatiladigan uchuvchi sharlariga nisbatan tatbiq etilmaydi. 2. Guvohnomani berish yoki berishni rad etish to'g'risidagi qarorni qabul qilish uchun "O'zaviatsiya" agentligining vakolatli shaxsi fuqaro havo kemasida tekshiruvni o'tkazib, fuqaro havo kemasining texnik holatini tekshirish dalolatnomasini rasmiylashtiradi. 3. Vakolatli organ arizani ko'rib chiqish muddati davomida o'rganishlarni o'tkazish uchun xarajatlar (xizmat safari va yo'lda bo'lgan vaqt uchun kundalik xarajatlar, mehmonxonalarda yashash xarajatlari, transport xarajatlari, kirish vizasini rasmiylashtirish va sug'urta polisini sotib olish xarajatlari) talabgor (ariza beruvchi) tomonidan amalga oshiriladi. 4. Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkilotining (IKAO) standartlari talablariga va tavsiya qilingan amaliyotga muvofiq "O'zaviatsiya" agentligi talabgorga ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni berganlik uchun yig'im to'langan sanadan e'tiboran bir ish kunidan kechiktirmay guvohnomaning asl nusxasini beradi. 5. Xalqaro parvozlarni amalga oshiruvchi fuqaro havo kemasi uchun guvohnomaning matni ingliz tilida bo'lishi lozim. 6. Parvozlarni amalga oshirish vaqtida guvohnoma havo kemasida bo'lishi lozim. Amaldagi guvohnoma bo'lmagan hollarda havo kemasida parvozlarni amalga oshirish taqiqlanadi. 7. O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan fuqaro havo kemasiga guvohnoma quyidagi hollarda berilishi mumkin: a) O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida fuqaro havo kemasini ekspluatatsiya qilishda; b) havo kemasini sotib olishda (ijaraga olish). 8. Guvohnomani berish tartib-taomillari talabgorning yozma murojaati asosida "O'zaviatsiya" agentligi direktorining buyrug'i bilan vakolat berilgan mutaxassis

tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida amalga oshiriladi.

9. O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida guvohnomani berish tartib-taomillari bajarilgan taqdirda, talabgor oldindan taqdim qilmagan ushbu pasportning 5-bandiga muvofiq guvohnomani berish uchun arizaga ilova qilinadigan (talabgor tomonidan havo kemasini qabul qilganidan keyin rasmiylashtiriladigan) hujjatlar tekshiruv o‘tkaziladigan joyda talabgorning vakolatli mutaxassislari tomonidan taqdim etilishi mumkin.

10. Guvohnoma fuqaro havo kemasi O‘zbekiston Respublikasi Fuqaro havo kemalarining davlat reyestriga (keyingi o‘rinlarda — davlat reyestri) kiritilganligini va O‘zbekiston Respublikasining milliy mansubligiga ega ekanligini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi.

11. “O‘zaviatsiya” agentligi davlat reyestrini yuritadi.

12. Davlat reyestri qog‘oz va elektron shaklda yuritiladi. Qog‘oz shaklidagi yozuvlar bilan elektron shakldagi yozuvlar o‘rtasida nomuvofiqlik mavjud bo‘lgan taqdirda, qog‘oz shaklidagi yozuvlar ustuvorlikka egadir.

13. Davlat reyestrda mavjud bo‘lgan ma’lumotlar “O‘zaviatsiya” agentligining rasmiy veb-saytida joylashtiriladi va tanishib chiqish uchun ochiq bo‘ladi.

14. Fuqaro havo kemasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar davlat reyestriga kiritilganda, fuqaro havo kemasiga ushbu kemaga qayd etiladigan davlat tanish va ro‘yxat belgilari tayinlanadi. Davlat tanish belgisi lotin alifbosining “UK” ikkita harfidan, ro‘yxat belgisi besh arab raqamlaridan tashkil topadi.

Fuqaro havo kemasiga tayinlangan davlat tanish va ro‘yxat belgilari, havo kemasining modifikatsiyasi va/yoki egasi o‘zgarishidan qat’i nazar, havo kemasini ekspluatatsiya qilinishi, butun muddati davomida saqlanib qoladi.

15. Davlat reyestriga kiritilgan fuqaro havo kemasi talabgorning murojaati asosida davlat reyestridan chiqariladi.

16. Taqdim etilgan hujjatlar asosida “O‘zaviatsiya” agentligi fuqaro havo kemasini davlat reyestridan chiqaradi va talabgorga fuqaro havo kemasi davlat ro‘yxatidan chiqarilganligi to‘g‘risidagi guvohnomani beradi. Fuqaro havo kemasi davlat reyestridan chiqarilgan taqdirda, fuqaro havo kemasi ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma avtomatik ravishda bekor qilinadi.

17. Talabgor fuqaro havo kemasi davlat ro‘yxatidan chiqarilganligi to‘g‘risida guvohnomani olganidan keyin fuqaro havo kemasiga qayd etilgan davlat tanish va ro‘yxat belgilarini havo kemasidan o‘chirib tashlaydi (yo‘q qiladi).

18. Fuqaro havo kemasi mulkdorining yozma murojaatiga ko‘ra Harakatlanuvchi uskunalarga nisbatan xalqaro kafolatlar to‘g‘risidagi konvensiya (Keyptaun, 2001 yil 16 noyabr) asosida fuqaro havo kemasini davlat

	reyestrndan chiqarish tartib-taomillari amalga oshirilishi mumkin. 19. Hujjatlar qabul qilingan sanadan boshlab besh ish kunidan oshmagan muddatda fuqaro havo kemasini davlat reyestrndan chiqarish va havo kemasi davlat ro'yxatidan chiqarilganligi to'g'risida guvohnomani berish tartib-taomillari amalga oshiriladi. 20. Fuqaro havo kemasi ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomada ko'rsatilgan havo kemasi egasi/mulkdorining ma'lumotlari o'zgartirilgan taqdirda, talabgor tomonidan fuqaro havo kemasi ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomani qayta rasmiylashtirish uchun tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda, ariza berilishi shart. 21. Vakolatli organ arizani ko'rib chiqish muddati davomida amalga oshiriladigan o'rganishlarni o'tkazish uchun xarajatlar (xizmat safari va yo'lda bo'lgan vaqt uchun kundalik xarajatlar, mehmonxonalarda yashash xarajatlari, transport xarajatlari, kirish vizasini rasmiylashtirish va sug'urta polisini sotib olish xarajatlari) haqiqiy xarajatlar summasi bo'yicha talabgor (ariza beruvchi) tomonidan yozma shartnomaga ko'ra qoplanadi. <i>*Qo'pol ravishda buzish deb hisoblanadigan talab va shartlar.</i>
--	--